



G'ISHT VA GAZOBETON ISHLAB CHIQUARISHNI ATROF- MUXITGA TA'SIRI

dotsent A.Y.Shodmonov

(Jizzax politexnika instituti) , shayu1963@mail.ru,
tel.998 91.944 19 42

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15751005>

ARTICLE INFO

Received: 24th June 2025

Accepted: 25th June 2025

Published: 27TH June 2025

KEYWORDS

atrof muxit, ekologiya, antropogen omillar, g'isht, gazoblok, tabiiy resurslar, energiya tejankor, devorbop materiallar

ABSTRACT

Bugungi kunda ekologiya bilan bog'liq muammolar global ko'rinish kasb etib, muayyan sharoitga moslashgan bir butun ekotizim yo'qolib ketishiga olib kelayotgani va bunga, birinchi navbatda, antropogen omillar sabab bo'layotgani jahon ahlini tashvishga solmoqda. Darhaqiqat, insoniyat oldidagi dolzarb vazifalardan biri — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish, flora va fauna olamini asrab-avaylash, global ekologik inqirozga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi

Fan va texnikaning rivojlanishi va yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishda keng joriy etilishi natijasida insonning tabiatga ko'rsatilayotgan ta'siri (antropogen ta'sir) jadallashib bormoqda. Inson va tabiat orasidagi o'zaro munosabatlar murakkablashib, ushbu ta'sir tabiiy omillar bilan qiyoslanadigan darajaga yetdi. Shuning uchun atrof muhitni muhofaza qilish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Atrof muhit muhofazasi muammolari, uning resurslaridan oqilona foydalanish oxirgi vaqtlarda o'ta muhim ahamiyat kasb etib, hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Atrof muhit tabiatini muhofaza qilish kompleks muammo sanalib, doimo keng ilmiy nazariy analiz va amaliy tadbirlarni o'tkazishni talab etadi. Bu ilmiy texnikaviy inqilob sharoitida odamlarni ehtiyojini tabiiy resurslar bilan qondirishda tabiiy muhitni buzilish va ifloslanishidan himoya qilish bilan bog'liqdir.

Bugungi kunda keng miqiyosda foydalaniladigan qurilish materiallaridan biri bo'lgan qurilish g'ishtini ishlab chiqarish juda rivojlandi. Buning albatta ijobiy va salbiy tomonlari bor. Umuman olganda har-qanday qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun qabul qilingan iqtisodiy qarorlarni qo'yidagi omillar bilan tahlil qilib ko'rish maqsadga muvofiqdir.

- mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan elektr energiyasi sarfi;
- mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yoqilg'i sarfi;
- sarflanadigan yoqilg'ining muqobil variantlarining mavjudligi;
- mahsulot ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladigan shovqin, havoni ifloslanishi, changi va boshqalar;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning urnini bosuvchi mahsulotning mavjudligi, uning ishlab chiqarish jarayonida va ekspluatatsiya qilish jarayonida energiya tejankorligi;
- ishlab chiqarish texnologiyasini zamonaviyli, qulayligi va undagi mashina va mexanizmlari;
- ishlab chiqarishda xom-ashyoning mavjudligi.

Yuqoridagi omillar asosida devorbop materiallardan oddiy qurilish g'ishti va gazobeton yoki kupikbeton bloklarini taqqosladigan bo'lsak har tomonlama farqini kurishimiz mumkin bo'ladi.

Respublika shaxarlarida sanoatni rivojlanishi ya'ni ishlab chiqarish xajminging oshishi natijasida o'z-o'zidan shaxar atrof muxitga ta'siri xam ortganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda keng miqiyosda foydalaniladigan qurilish materiallaridan biri bo'lgan qurilish g'ishtini ishlab chiqarish juda rivojlandi. Buning allbatta ijobiy va salbiy tomonlari bor. Shuning uchun atrof muhitni muhofaza qilish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi va ushbu muammolarni hal etishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

-birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirishda, moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim;

-ikkinchidan, sarflanadigan yoqilg'ining muqo_bil variantlarining mavjudligi, ya'ni ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun kerak bo'ladigan energiya resurslarini qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish yoki qurilish materiallarini ishlab chiqarishni energiyani tejaydigan yo'nalishlarda ishlarni olib borish;

-uchinchidan, mahsulot ishlab chiqarish jarayo_nida atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish, hosil bo'ladigan shovqin, havoni ifloslanishi, changi va boshqa masalalarga ham alohida ahamiyat berish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish lozim bo'ladi;

-to'rtinchidan, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

-beshinchidan, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan elektr energiyasi va yoqilg'i sarfi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning urnini bosuvchi mahsulotning mavjudligi, uning ishlab chiqarish jarayonida va ekspluatatsiya qilish jarayonida energiya tejamkorligi, ishlab chiqarish texnologiyasini zamonaviyli, qulayligi va undagi mashina va mexanizmlari, ishlab chiqarishda xom-ashyoning mavjudligi;

-oltinchidan, aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrof-muhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

Shunday qilib, biz gazbeton bloklar g'ishtlarga faqat bitta parametrda - Siqilishga bo'lgan mustahkamligi bo'yicha ustunligini ko'ramiz. Bu shuni anglatadiki, g'ishtlar ko'p qavatli binolarni qurish uchun mosdir. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, seysmik faol hududlarda ko'p qavatli uylar gazbeton bloklardan tobora ko'proq qurilmoqda.

Bugungi kunda gazobeton va kupikbeton bloklarini xar tomonlama qulay sharoitlar va zamonaviy texnologiya asosida ishlab chiqarish rivojlanmoqda. Chunki gazobeton va kupikbeton bloklarini ishlab chiqarishda eng birinchi galda ekologiya va atrof-muhitga salbiy ta'siri qurilish g'ishtini ishlab chiqarishga nisbatan ancha past.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bir-birini o'rnini bosuvchi tovar sifatida qurilish g'ishtini ishlab chiqarishga qaraganda gazobeton va kupikbeton bloklarini ishlab chiqarish har tomonlama maqsadga muvofiq shuningdek eng asosiy tabiatga zarar yetmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1 Fattoev I. I., Mavlyanov X.N. "Sanoat ekologiyasi" Uslubiy kullanna. Buxoro, Ziyoz-Rizograf, 2006.y.

2. Dedaxanov B., -Xatamova D, "Sanoat binosi" Namangan 2019 y

3. Shodmonov A. Yu. Izuchenie svoystv bazaltovogo fibrobeta //Sovremennoe promyshlennoe i grajdanskoe stroitelstvo. – 2021. – T. 17. – №. 2. – S. 77-84.

4. Shodmonov A. Yu. i dr. Issledovanie mexanicheskix svoystv bazaltovogo beta //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 5. – S. 250-256.

5. Shodmonov A. Y. et al. Issiqbardoshli beta tarkibini hisoblash //Science and Education. – 2022. – T. 3. – №. 2. – S. 193-197.